

DISKURS TUSHUNCHASINING TADQIQI

Faxriddin Jo‘raqulovich Yakubov

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

yakubovf57@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada diskurs tushunchasiga tilshunos olimlarning turlicha qarashlari, xulosalari, g‘arb va o‘zbek olimlarining bu masala bo‘yicha bahs-munozaralari va bu munozaralardan kelib chiqadigan xulosalar yoritilgan.

***Kalit so‘zlar.** Diskurs, zamonaviy tilshunoslik, yondashuv, matn, kontekst, muloqot, semantik strukturalar, tahlil, jarayon, gumanitar fanlar*

ABSTRACT

The article covers the concept of discourse, analyses different approaches given by Uzbek and western linguists and summarizes their viewpoints.

***Keywords.** Discourse, modern linguistics, approach, text, context, communication, semantic structures, analysis, process, humanities.*

KIRISH

Diskurs – ko‘p fanlarning tadqiqot mavzusi. Diskurs termini keyingi paytlarda tilshunoslik, siyosatshunoslik, falsafa, psixologiya, pedagogika, jurnalistika, kulturologiya, san‘atshunoslik, semiotika, zamonaviy fanlar kompyuter tilshunosligi, sun‘iy intellekt kabi fanlar sohasida keng ishlatila boshladi. Shu sababdan “diskurs” u yoki bu ilmiy konsepsiyaga bog‘liq holda olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. G.G. Slisshkin qayd etganidek, “diskurs” tushunchasining zamonaviy tilshunoslikda bir necha marta ishlatilishi shunga olib keldiki, ushbu tushuncha keng tarqalgan, zamonaviy tushuncha maqomini oldi va o‘z navbatida uni tushunish va ishlatishda tartibsizlik yuzaga keldi, chunki zamonaviy keng tarqalgan tushuncha ko‘pincha nafaqat informativ, balki parol funksiyasini ham bajaradi [Slisshkin 2000: 38].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Quyida “diskurs” tushunchasining ko‘p ma‘noli ekanligini va tadqiqotimiz uchun uning eng ma‘qul keladigan ta‘rifini ko‘rib chiqamiz. A.P. Bulatova diskursning ikkita asosiy xususiyatini qayd etadi:

- Diskurs matn yoki nutqdan farqli ravishda uni foydalanuvchilar qanday tushunib qabul qilishlaridan qat'iy nazar, ong tushunchasini o'z ichiga oladi.

- Diskurs chiziqli va tugallangan ketma-ketlik emas, diskurs bu aytilgan hamma narsa [Bulatova 1999:34].

Diskurs nazariyasi manbalari T.A. van Deykning fikriga ko'ra, ritorika va poetika bo'yicha ikki ming yildan ko'proq vaqt oldingi antik traktatlarga borib taqaladi [Deyk 1989:113]. Biroq, bu yo'nalishning zamonaviy rivojlanishiga qaraydigan bo'lsak, 1960 yilning o'rtalaridan boshlab diskurs haqida gapirila boshladi.

Diskurs tushunchasini izohlashlar so'ngi yillarda ko'p darajada o'zgardi. Bizning tilimizga diskurs bir qancha tilshunoslar – strukturalist va poststrukturalistlar (E. Benvenist, J. Searle, T.A. van Deyk, M. Halliday, M. Fuko) ning ilmiy ishlari orqali kirib kelgan.

Diskurs tushunchasining ko'p ma'noliligi haqida gapirganda N.N. Belozerovanning "Diskurs paradokslari" ishini eslab o'tish joizdir. Bu ishda "diskurs" so'zining o'rta asrlardan to hozirgi davrimizgacha etimologiyasi va transformatsiyasi tahlil qilinadi [Belozerova 2002]. Bu so'z lotin tilida "kursdan og'ish", "uzoqqa qochish" va hokazo ma'nolarni ifodalagan. Lekin muttasil ravishda jismoniy harakat nominatsiyasi nutqiy harakat nominatsiyasiga o'zgargan. Va nihoyat fransuzcha "discours" so'zining birinchi ma'nosi "dialogik nutq" ma'nosini anglatgan [Mironova 1997a: 57]. Lekin ozroq vaqt keyin, XIX asrdayoq bu so'z polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli so'zga aylandi va Yakob Grimm va Vilgelm Grimmning nemis tili lug'atida quyidagi ma'nolarni anglatgan: 1_ dialog, suhbat; 2) nutq, ma'ruza. Aynan "nutq" ma'nosida *diskurs* so'zi zamonaviy g'arb tilshunoslik ilmiy ishalrida ko'pincha ishlatiladi (oral discourse, free indirect discourse).

Shu bilan birga N.D. Arutyunovanning tilshunoslik bo'yicha Katta ensiklopedik lug'atida e'lon qilingan "Diskurs" nomli maqolasi bilan tanishganda shunday xulosa qilish mumkinki, diskurs atamasiga avvalo, *gapirish* semasini kiritish kerak, chunki bu atama fransuzcha *discourse*, nutq so'zidan kelib chiqqan [Языкознание. БЭС 1998: 136]. N.D. Arutyunova diskurs terminini yuqorida ko'rsatilgan lug'atda 3 pozitsiyadan ko'rib chiqadi:

- Diskurs bu ekstralingvistik - pragmatik, ijtimoiy -madaniy, psixologik va boshqa faktorlar bilan birgalikda bog'langan nutqdir.

- Diskurs bu voqea aspektida olingan matndir.

- Diskurs bu maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, kishilarning bir-birlariga o'zaro ta'sirlarida va ularning tafakkur mexanizmlarida (kognitiv jarayonlarda) ishtirok etadigan komponent.

Bunga qo'shimcha qavishda N.D. Arutyunova *diskurs* ni "hayotning ich-ichiga botib ketgan" "nutq" deb biladi [Языкознание. БЭС 1998].

Umuman olganda, *diskurs* atamasining N.D. Arutyunova talqinida uch tushunchaning o‘zaro bog‘liqligi kuzatiladi: diskurs, nutq, matn. Bu yerda bizning fikrimizcha, V.V. Bogdanov haq: **nutq** va **matn** diskursning teng bo‘lmagan tomonlaridir. Diskurs biz gapiradigan va yozadigan hamma narsa deb tushuniladi, boshqacha aytganda til materiali. L.V. Sherba tili bilan aytganda uning har qanday ko‘rinishi – tovush, grafik, yoki boshqa jismoniy usullar bilan uzatiladigan til axboroti diskursdir.

Matn tor ma’noda ma’lum bir (fonografik yoki ideografik) vositaga ... yozuv yordamida qayd etilgan yoki o‘rnatilgan “til materiali” sifatida tushuniladi. Shunday qilib, *nutq* va *matn* atamaları ularni birlashtiruvchi umumiy *diskurs* atamasining turli ko‘rinishlari bo‘lib chiqadi [Bogdanov 1993: 5].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagilardan umumlashtirib aytishimiz mumkinki, *og‘zaki/yozma, monologik/dialogik* kabi binar belgili har qanday cheklovlardan holi diskurs tushunchasining umumlovchi xarakteri ta’kidlanadi.

Diskurs terminini til ishlatilishining barcha turlarini o‘z ichiga oluvchi, birlashtiruvchi termin sifatida qabul qilish qulayroqdir. Bunda diskursning o‘zak elementi matndir, va har qanday holatda ham diskursni o‘rganish matnni o‘rganishni (statika) taqozo etadi. Ayni paytda diskurs uning dinamik xarakterini ko‘rsatadigan nutq tushunchasi orqali ham aniqlanadi.

Diskurs tushunchasi tadqiqotchilari u yoki bu tarzda ko‘p hollarda *diskurs* va *matn* tushunchalariga nisbatan izoh berishlariga tog‘ri keladi. E.S. Kubryakova ta’kidlaganidek, kognitiv tilshunoslik pozitsiyasidan matn va diskursni farqlash “butunlay tabiiydir, chunki bu kognitiv faoliyat va uning natijasiga mos keladi [Kubryakova 1997:191]. Ya’ni, bu fikrga ko‘ra, “diskurs” deyilganda nutq bilan bog‘liq kognitiv jarayonning o‘zi, “matn” deyilganda nutqiy faoliyat jarayonining so‘ngi natijasi tushuniladi. Masalan, ko‘p tadqiqotlar “diskurs” va “matn” ning bir qator oppozitsion kriteriyalari qarama-qarshiligiga quriladi [Makarov 1995:4].

Funksionallik – Strukturalilik

Dinamiklik – Statiklik

Jarayon – Mahsulot (Produkt)

Aktuallik – Virtuallik

Diskurs – nafaqat keng tushuncha, balki sifat jihatdan matndan farq qiladigan tushuncha hamdir.

Mamlakatimizdagi diskurs nazariyasi avvalo M.M. Baxtinning so‘z ichki dialogik ekanligi haqidagi g‘oyalariga va matn va kontekstning birligi haqidagi asariga tayanadi

[Baxtin 1986]. Bundan kelib chiqadiki, diskurs – matnni to‘liq analitik ko‘rish, kognitiv va til strukturalarining birligi.

V.Z. Dem‘yankovning diskurs tushunchasi haqidagi ta‘rifi eng ko‘p va keng tarqalgan. Bu uning tilshunoslik bo‘yicha yangi asarlarida yoritilgan. “Discourse” diskurs bir gapdan ko‘proq gaplardan tashkil topgan ixtiyoriy matn fragmenti, yoki mustaqil gap bo‘laklari. Ko‘pincha qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi, harakatlanadigan shaxslarni, ob‘ektlarni, holatlarni, harakat va hokazolarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni yaratadi, bular faqat gaplarning ketma-ketligi bilan emas, balki diskursni yaratuvchi va uning interpretatori dunyo tomonidan aniqlanadigan, “diskurs” kelib chiqishida yo‘l-yo‘lakay “quriladigan” matn fragment-bu nuqtaiy-nazar “nutq etnografiyasi” ... Diskurs uchun dastlabki struktura bu bir-biri bilan mantiqan bog‘langan kon‘yunksiya, diz‘yunksiya va hok. elementar propozitsiyalari ketma-ketligi ko‘rinishiga ega. Diskurs elementlari: bayon qilinadigan voqealar, ularning qatnashchilari, “voqealar emas”, performativ axborot, ya‘ni

a) voqealarga ergashuvchi holatlar;

b) voqealarni aniqlashtiruvchi fon;

c) voqealar ishtirokchilari bahosi;

d) diskursning voqealar bilan aloqador ekanligi haqida axborot [Dem‘yankov 1982: 7].

Shubhasizki, diskurs atamasini tushunishda dastlabki nuqta bu uning *lingvistik ma‘nosidir* [Dvortsova 2000: 5].

Emil Benvenist o‘zining “Umumiy tilshunoslik” kitobida sossyurcha *til -nutq* diadasi o‘rniga *til-diskurs-nutq* triadasini qo‘llashni aytadi. Uning fikricha, diskurs bu tilning nutqqa aylanish jarayoni “gapiruvchilar tiliga aylanishi” [Benvenist 1974: 298-299]. Benvenist alohida ta‘kidlaydiki, *diskurs kengligi* – bu diskret va har safar takrorlanmas aktlar kengligi, “u orqali gapiruvchi tilni nutqqa aktuallashtiradi” [o‘sha yerda: 295].

Diskursga tavsif berishda yetakchi mutaxassis T.A. van Deyk E. Benvenistning diskurs tushunchasini qabul qildi va uni fanlararo yo‘nalish sifatida diskurs tahlil asosiga qo‘ydi [Dijik 1983; 1988; Deyk 1994]. T.A. van Deyk tushuntirishi bo‘yicha diskurs – bu nutq oqimi bo‘lib, til, ya‘ni muloqotchi sifatida individual va ijtimoiy xususiyatlarini, muloqot sodir bo‘layotgan kommunikativ vaziyati sifatida xususiyatlarini, tarixiy davrning barcha ko‘p xilma-xilligini o‘zida jamlagan til uning doimiy harakatida bo‘ladi. Diskursda ham milliy, umumiy, ham individual, xususiy sifatida mentalitet, madaniyat aks etadi [Dijic 1988]. T. A. van Deykning diskurs bo‘yicha ushbu traktovkasi terminning semantik ko‘lamini ancha oshirganligi butunlay qonuniydir. Shunga muvofiq ravishda diskurs atamasi sotsiologiyada, politologiyada va ijtimoiy semiotikada diskursiv amaliyotni ifodalash uchun tes-tez qo‘llanila

boshladi (Bu fikrni M. Fuko taklif qilgan [Fuko 1996:35]. Fuko yana ta'kidlagan ediki, diskursni qandaydir tematik birlik emas, balki “qoidalar o'yini”, “konseptlar orqali manipulyatsiya qilish” sifatida qarash kerak [o'sha yerda:35; 71].

O'zbek tilshunos olimi Sh. Safarov "diskurs inson ongli faoliyatining ma'lum bir turi, turkumi bo'lsa, matn uning bir ko'rinishidir. Nahotki matn va diskurs bir-birini inkor etadigan hodisalar bo'lsa? Hech ishongim kelmaydi. Axir har qanday lisoniy hodisa ayni paytning o'zida shakl va ma'no uyg'unligiga ega bo'lmasa, yoxud unda moddiylik va mavhumlik – ramziylik belgilari birikmasa, mazmun ifoda etish qobiliyatini yo'qotmaydimi?" deb yozgan edi. [Sh. Safarov. Pragmalingvistika. T. 2008].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, diskurs bu matn va nutq kabi teng bo'lmagan komponentlarni o'z ichiga olgan keng umumlashtiruvchi tushuncha. Bunda “diskurs” deganda nutq bilan bog'liq kognitiv jarayon, “matn” deyilganda nutqiy faoliyat jarayonining so'ngi natijasi tushuniladi. Umuman, diskurs – kognitiv va til strukturalari birligi, u kognitiv fikrlash va bevosita tahlilni nazarda tutadi. Matn qachon diskurs bo'ladi? Matnni ko'rib chiqilayotganda nafaqat lingvistik – semantik strukturalar, balki yashirin assosiativ aloqalar ham qamrab olinsa, so'zning ishlatilishi va ijtimoiy kontekstlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik o'rnatilsa matn diskursga aylanadi. Shunday qilib, diskursga ekstralingvistik faktorlar kontekstida murakkab kommunikativ hodisa sifatida, matnga o'xshamagan, biroq matnga to'liq analitik qarash, kognitiv va til strukturalari birligi deb qaraymiz. Diskurs haqidagi turli qarashlar hali bu muammoning tadqiq etilishi kerak bo'lgan ko'p tomonlari borligini bildiradi.

REFERENCES

1. Слышкин, Г. Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г. Г. Слышкин. — М.: Academia, 2000. — 128 с.
2. Булатова, А. П. Концептуализация знания в искусствоведческом дискурсе / А. П. Булатова // Вестник МГУ. Сер. 9, Филология. 1999. — № 4. — С. 34–49.
3. Дейк, Т. А. ван. Язык. Познание. Коммуникация / Т. А. ван Дейк. — М.: Прогресс, 1989. — 312 с.
4. Белозерова, Н. Н. Парадоксы дискурса / Н. Н. Белозерова // Language and literature [Электронный ресурс]. — 2002. — № 13. — URL: <http://www.frgf.utmn.ru/journal/No13/journal.htm>

5. Миронова, Н. Н. Оценочный дискурс: проблемы семантического анализа / Н. Н. Миронова // Известия РАН. Серия литературы и языка. — 1997а. — Т. 56, № 4. — С. 52–59.
6. Арутюнова, Н. Д. Язык и мир человека / Н. Д. Арутюнова. — М.: Языки русской культуры, 1999. — 896 с.
7. Богданов, В. В. Текст и текстовое общение / В. В. Богданов. — СПб., 1993. — 231 с.
8. Кубрякова, Е. С. Части речи с когнитивной точки зрения / Е. С. Кубрякова. — М.: Институт языкознания РАН, 1997. — 326 с.
9. Макаров, М. Л. Анализ дискурса в малой группе / М. Л. Макаров. — Тверь: Изд-во Тверского ун-та, 1995. — 82 с.
10. Демьянков, В. З. Англо-русские термины по прикладной лингвистике и автоматической переработке текста / В. З. Демьянков // Методы анализа текста. — Вып. 2: Тетради новых терминов. — М.: ВЦП, 1982. — 90 с.
11. Бахтин, М. М. Формы времени и хронотопа в романе / М. М. Бахтин // Литературно-критические статьи. — М., 1986. — С. 121–262.
12. Дворцова, Н. П. Дискурс как категория гуманитарных наук / Н. П. Дворцова // Вестник Тюменского государственного университета. — Тюмень, 2000. — № 4. — С. 3–8.
13. Dijk, T. A. van. News as Discourse / T. A. van Dijk. — New Jersey; L.: Lawrence Erlbaum Associates. Publ., 1988. — 200 p.
14. Safarov Sh. S. Pragmalingvistika. -Т. 2008.
15. Sattorova Nafisa Isomidinovna. (2023). Translation analysis on figurative language in English and Uzbek (based on "the old man and sea" by Ernest Hemingway). research and education, 2 (1), 105–109.